

**QURILISH TASHKILOTLARINING ISHLAB CHIQARISH FONDLARIGA
TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

Usmonova Vasila Botirovna

O'zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali stajyor-o'qituvchisi

usmonovavasila@jbnuu.uz

Umurzakova Shaxzoda Azamatovna

O'zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Qurilish tashkilotlari mamlakat iqtisodiyoti salohiyatini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada qurilish tashkilotlari ishlab chiqarish fondlari samaradorligini oshirish ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, qurilish, qurilish tashkiloti, ishlab chiqarish fondlari, amortizatsiya, qurilish tannarxi.

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ ФОНДЫ
СТРОИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ**

Аннотация: Строительные организации играют важную роль в укреплении потенциала экономики страны. Исходя из этого, в данной статье проанализированы показатели повышения эффективности производственных фондов строительных организаций.

Ключевые слова: народное хозяйство, отраслевая структура экономики, строительство, строительная организация, производственные фонды, амортизация, себестоимость строительства.

**FACTORS AFFECTING THE PRODUCTION ASSETS OF CONSTRUCTION
ORGANIZATIONS**

Annotation: Construction organizations play an important role in strengthening the potential of the country's economy. Based on this, this article analyzes the indicators of increasing the efficiency of production assets of construction organizations.

Keywords: national economy, sectoral structure of the economy, construction, construction organization, production funds, depreciation, cost of construction.

2023 yilning 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 46 971 tani tashkil etdi. Shuningdek, 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 4807 ta yangi qurilish korxonasi tashkil etilib, ularning faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarga nisbati 10,2 % ni tashkil etdi.


Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 9 634 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarning 20,5 % i Toshkent shahrida joylashgan. Shuningdek Toshkent viloyatida 4 122 ta (respublika bo'yicha jami qurilish korxonalarining 8,8 % i) va Farg'ona viloyatida 3 968 ta (8,4 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 130767,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021 yilga nisbatan 106,6 % ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlari shuni ko'rsatdiki, bino va inshootlar qurilishi 68,4 % ulushni (o'sish sur'ati 2021 yilga nisbatan 104,4 %), fuqarolik obektlari qurilishi 21,5 % (102,7 %) va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 10,1 % (138,2 %)ni tashkil etdi. 2022 yil yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 68,6 % i yoki 89695,5 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obektlarni yaratishga qaratilgan. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,7 % i to'g'ri kelib, 2021 yilga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021 yilga nisbatan 106,3 % ni tashkil etgan holda 68953,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (17425,5 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatkichning 54,6 % i), Toshkent (6326,4 mlrd. so'm yoki 52,1 % i) va Samarqand (5791,4 mlrd. so'm yoki 66,1 % i) viloyatlarida qayd etilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinishlaridan, xususan, ishlab chiqarish vositalari (asbob-uskunalar, mashinalar, xomashyo va materiallar, ishlab chiqarishga mo'ljallangan binolar va shu kabilar)dan farqlaydi. Buni inobatga olgan holda, Qurilish tashkilotlari vositalarining "pul shakli" va "pul qiymati" tushunchalarini farqlash talab qilinadi. "XYuS vositalarining pul qiymati" tushunchasi, odatda, pul mablag'larining o'zini emas, balki turli maqsadlar uchun mo'ljallangan vositalar va fondlar (masalan, asosiy fondlar)ning qiymat jihatidan baholanishini anglatadi.

Pulga sotib olinganiga qaramasdan ishlab chiqarish vositalari - asbob-uskunalar, mashinalar, xomashyo va materiallar, ishlab chiqarishga mo'ljallangan binolar va shu kabilar) haqiqatda pul hisoblanmaydi. Ishlab chiqarish fondlarini qaytadan pul shakliga aylantirish uchun, avvalo, ular sotilishi lozim. Bu holda, o'z navbatida, mol-mulkning balansda aks ettirilgan qiymati baholari emas, balki haqiqiy bozor baholari harakatga tushadi. Moliyaviy qiyinchiliklar va bankrotlik xavfi ostida vujudga keladigan bunday vaziyatlar Qurilish tashkilotlarini yomon oqibatlarga, xususan, mablag'lar va resurslarning yo'qotlishiga olib kelishi mumkin. Xolbuki, xalqaro amaliyotga ko'ra, bankrotga uchragan Qurilish tashkilotlari tugatilayotgan paytda unga tegishli bo'lgan aktivlar qiymatining

40%dan ortiq bo'lмаган qismini olishga muvaffaq bo'lishi mumkin. Shu bois, hatto, sog'lom bozor muhitida, ya'ni talabga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarilsa ham, u faqat sotilgandan so'nggina, pul mablag'iiga aylanadi.

Ishlab chiqarish jarayonini yangidan boshlash va rivojlantirishga mo'ljal-langan Qurilish tashkilotlarining moliyaviy resurslari bu ularning pul shaklidagi kapitalidir. Mehnat vositalari, predmetlari va natijalariga aylangan moddiy-buyumlashgan kapital, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining jismoniy va intellektual qobiliyatlaridan iborat bo'lgan inson kapitali kapitalning mavjudligi va haraka-tining pulsiz shakli hisoblanadi. O'z mohiyatiga ko'ra, takror ishlab chiqarish jarayonining doiraviy aylanishiga kiritilgan va uning egasiga daromad keltiruvchi har qanday mulkiy va intellektual boylik kapital bo'lishi mumkin.

Amortizatsiya ajratmalarini fondi Qurilish tashkilotlari moliyaviy resurslarining tarkibiy tuzilmasida muhim o'rinni tutadi. Chunki bunday ajratmalar pul tushumlaridan qancha ajratilganligi va ularning Qurilish tashkilotlarining tegishli hisob varaqlarida joylashganligiga qarab, Qurilish tashkilotlarining real moliyaviy resurslari hisoblanadi.



1-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyasini boshqarish

Foyda massasi va normasi, uning xarajatlarga nisbati Qurilish tashkilotlarining kreditga layoqatini va uning qarz mablag'larini jalg qilish imkoniyatini, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni olishni aniqlab beradigan muhim indikatorlardir. Qarz mablag'larining

Qurilish tashkilotlarining o‘z mablag‘lariga nisbati 1/3 va undan yuqori darajaga yetishi, subyektlarning to‘lov layoqatiga kreditorlarda ham, hamkorlarda ham shubha tug‘dirmaydi.

Iqtisodiy munosabatlarni takror ishlab chiqarish shakllaridan biri sifatida, Qurilish tashkilotlari moliyasining harakati minimal xarajatlarda maksimal natijalar olinishini nazarda tutuvchi samaradorlikning umumiqtisodiy mezoniga bo‘ysunadi. Shundan kelib chiqqan holda, Qurilish tashkilotlarining moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$Smr = Nmf \square Xmr$$

Bu yerda: Smr – XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi;

Nmf – ma’lum davr (avvalgi yoki joriy) uchun XYuS faoliyatining moliyaviy natijasi;

Xmr – muayyan moliyaviy natijani qo‘lga kiritish uchun XYuS tomonidan amalga oshirilgan (yoki rejalahtirilgan) moliyaviy resurslar xarajatlari.

Qurilish tashkilotlarining moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda shuni yodda tutish lozimki, moliyaviy natija faqat moliyaviy emas, balki moddiy va mehnat resurslari xarajatlarining natijasi ham hisoblanadi. Shu sababli, mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan foydani hisobga olgan holda, buning natijasida faqat faoliyatning sof moliyaviy tomonini tavsiflovchi ko‘rsatkichga ega bo‘lamiz, deb hisoblash o‘rinli emas. Bu Qurilish tashkilotlarining moliyaviy xo‘jalik faoliyati samaradorligini tavsiflovchi umumiy ko‘rsatkichlardan biri sanaladi, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida moddiy ishlab chiqarish va moliyaviy oqimlarning uzviy bog‘liqligi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar o‘zida moliyaviy natija va moliyaviy xarajatlarni mujassam etuvchi va Qurilish tashkilotlarining moliyaviy xo‘jalik faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi boshqa ko‘rsatkichlarga ham to‘laligicha ta’lluqli.

Qurilish tashkilotlarining moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda uning moliyaviy barqarorligi, to‘lovga layoqatliligi va likvidliligin tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Hisobot davri davomida asosiy vositalar obyektlari bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari hisoblashni qo‘llash usullariga bog‘liq bo‘lmagan holda har oyda hisoblanadi. Mavsumiy ishlab chiqarishda ham asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi hisobot yilda tashkilotning ishslash davri davomida bir tekisda hisoblanadi. Agar asosiy vositalarning obyektlari rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishda bo‘lsa, yoki ular uch oydan ko‘proq muddatga konservatsiya qilishga o‘tkazilgan bo‘lsa, bunday holatlarda amortiza-tsiya ajratmalarini hisoblash tashkilot rahbarining qaroriga muvofiq to‘xtatilishi mumkin.

Hozirgi paytda amaliyotda amortizatsiya ajratmalarini hisoblashning to‘rt asosiy usulidan foydalilanadi:

- amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash;
- amortizatsiyani bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash (ishlab chiqarish usuli);
- ikki karra amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;
- yillar summasi usuli (kumulyativ usul).

Amortizatsiya guruhlariga kiritiladigan asosiy vositalarning tasnifini har bir mamlakat hukumati tomonidan belgilab beradi. Amortizatsiya guruhlari ko'rsatil-magan asosiy vositalarning turlari bo'yicha ularning foydali foydalanish muddat-lari ularni tayyorlagan tashkilotlarning tavsiyalari va texnik shart-sharoitlariga muvofiq, soliq to'lovchining o'zi tomonidan o'rnatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-813 son Qonuni, <https://lex.uz/docs/-6333240#-6334690>
2. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zR Qonuni (yangi tahrir). 13.04.2016 y. № O'zRQ-404 (yangi tahrir), <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2022 yildagi PF-198-son "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulknинг kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/6171343>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi PF-6207-son "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/5371091>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yilga mo'ljallangan Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi
6. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik /Toshkent Moliya instituti. - Toshkent: "Noshir", 2011. 712 b.
7. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi.-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti,2021. 464 b.
8. Усмонова В. ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ //Economics and education. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 70-74.
9. Usmonova, V., & Ilashev, A. (2023). STRATEGY "DIGITAL UZBEKISTAN-2030": INNOVATIVE-INTEGRATION DIGITALIZATION OF AGRICULTURE ECOLOGICAL-ECONOMIC DEVELOPMENT AND AN IMPORTANT STRATEGIC DIRECTIONS OF EMPLOYMENT OF THE RURAL POPULATION. Science technology&Digital Finance, 1(5), 22-28. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/iauv>
10. Usmanova V. INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 05. – С. 131-138.
11. Усмонова В. Б. ҲУДУДЛАР ТАРАҚҚИЁТИДА РАҚАМЛИ ИКТИСОДИЁТ РИВОЖЛАНИШИННИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2022. – С. 139-143.

12. Usmonova, V., & Esanov, H. (2023). THE EXISTING INVESTMENT ENVIRONMENT IN THE CONSTRUCTION SECTOR OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Science technology&Digital Finance*, 1(4), 31-40.
<https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/uveh>
13. Sharafullina, R., & Usmonova, V. (2023). THE DIGITAL ECONOMY: DEFINITION, ADVANTAGES, DISADVANTAGES. *Science technology&Digital Finance*, 1(5), 47-51. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/uvshr>
14. Botirovna U. V. O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH SOXASIDAGI INVESTITSION MUHIT. *Информатика и инженерные технологии*, 2023 - inlibrary.uz